



Enaxon Siddiqova she'rlarida qo'llangan metaforalarning semantik tahlili

Dilnavoz Abdurahimova

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Enaxon Siddiqova she'riyatida eng ko'p qo'llangan metafora hodisasi grammatik jihatdan tahlil qilingan,metaforaning ma'no turlari o'rganilgan hamda shoira she'rlari yuzasidan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: fitonim, tasviriy vositalar,ko'chim,o'z ma'no,belgi,semema.

Semantic analysis of metaphors used in Enakhon Siddikova's poems

Annotation: In the article, the phenomenon of metaphor most often used in Enakhon Siddikova's poetry is grammatically analyzed, the meaning types of metaphor are studied, and the poet's poems are analyzed.

Key words: phytonym, pictorial image, migration, meaning, sign, symbol.

Семантический анализ метафор, использованных в стихах Энахон Сиддиковой

Аннотация: В статье грамматически анализируется явление метафоры, наиболее часто используемое в поэзии Энахон Сиддиковой, изучаются смысловые типы метафоры, анализируются стихотворения поэтессы.

Ключевые слова: фитоним, живописный образ, миграция, значение, знак, символ.

Metafora haqida umumiylumot

Metafora- bu narsa yoki harakatni tushuntirish uchun boshqa obyekt yoki harakatning xususiyatlaridan foydalilaniladigan adabiy yoki ritoric figura hisoblanadi. Ya'ni u qo'lga kiritmoqchi bo'lgan g'oyani yana-da yaxshiroq ifodalash uchun o'xshashlikdan foydalilanadi. Masalan: Sochingiz ertalab quyoshidir. Uning sochlari u tushuntirmoqchi



bo'lgan obyekt bo'ladi va ular ertalab quyoshi bu sochlar juda sariq yoki oltin rangda ekanligini aytmoqchi bo'lyapti. Shunday qilib, metaforadan quyidagi tushunchalar olinadi:

- taqqoslash yordamida go'yani tushuntirishga yordam beradi;
- ya'ni buni so'zma-so'z qabul qilmaslik kerak (sochlar quyosh bo'la olmaydi), lekin u bu o'rinda ramziy ma'noda qo'llanilgan;
- bular she'riyatda yoki adabiyotda juda ko'p ishlatiladi va bu shuni anglatadiki, u odatda kontsetipsiyani bezash uchun mo'ljallangan bo'ladi. (Osmondag'i har bir yulduz- bu siz uchun yig'lagan ko'z yoshim).
- ular go'zallik tushunchasini hisobga ilmagan holda, bo'rttirilgan ifoda shakli sifatida ha ishlatilaishi mumkin (Bu xabar meni o'limga olib keldi). Badiiy matnda qo'llanilgan o'xshatishlar tadqiqi bo'yicha F.Usmonov¹⁰D.Ashurov¹¹lar ishlari alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, N.Umarovning "Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi" mavzusidagi doktorlik(DsC) dissertatsiyada ham Navoiy ijodida qo'llanilgan o'xshatish konstruksiyalarining kognitiv xususiyatlari qiyos kategoriyasi doirasida tahlil etilgan.¹²O'xshatishlarni turli semantik guruhlarga ajratish, xususan, ularni ornitomik, zoonimik, biomorfik kabi kodli o'xshatishlarga bo'lib, tasniflash usulini G.Roziqova,¹³

¹⁰ Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Фил.фун.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

¹¹ Ашуроев Д. "Алпомиши" достонинг лингвокультурологик хусусиятлари: Фил.фун.б-ча фалс.д-ри(PhD). ...дисс. автореф. – Наманган, 2021.

¹² Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол.фун.д-ри (DsC). ...дисс.автореф. – Фарғона, 2021.

¹³ Розикова Г. "Девону луғотит турк" асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари: Филол.фун.д-ри (DsC). ...дисс.автореф. – Фарғона, 2021.

¹⁴ Жўраева Р. Муқимий асарларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фун.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Кўқон, 2022.

¹⁵ Маруфова З. Мумтоз бадиий матнларда "гўзаллик" концептининг вербаллашуви: Филол.фун.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022.



R.Jo'rayeva,¹⁴ Z.Ma'rufova¹⁵ kabi olimlar tadqiqotlarida uchratish mumkin. Metaforalarni tasniflar ekan, tadqiqotchi A.Xo'jamqulov uning quyidagi turlarini farqlaydi:

Metafora turlari

1. Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, qulqoq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi.
2. Zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a'zolari nomini ifodalagan leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi bo'lib, bu turga bo'ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot kabi leksemalarning metaforik ma'no hosil qilishi kiradi.
3. Fitomorfik metafora. Bu daraxt, o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma'nosining ko'chishi natijasida hosil bo'lgan metafora bo'lib, g'uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak kabi leksemalarning metaforik ma'noda qo'llanishi bunga misol bo'ladi.
4. Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur, shu'la kabloj leksemalar ma'nosini metaforik usul bilan ko'chirish natijasida hosil bo'ladi.
5. Abiomorfik metafora. Metaforaning bu turiga yuqorida sanab o'tilgan turlariga kirmaydigan, tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalar ma'nosining metaforik ko'chishidan hosil bo'lgan metaforalar (temir, tosh, kishan) kiradi".⁷ Shu tasnifga teomorfik metafora guruhibi kiritish maqsadga muvofiq.

Antropotsentrik metafora teomorfik metafora tizimida ham ko'plab uchraydi. Farishta, shayton, jin kabi so'zlarning insonga nisbatan qo'llanilishi fikrimizning dalilidir.



Ushbu maqolada metafora hodisasining lingvopoetik tahlilini Enaxon Siddiqova she'rlari tahlilida ko'rib chiqamiz. Shoira she'riyatida metaforaning quyidagi ma'no turlari qo'llangan.

Tabiat unsurlari bilan bog'liq o'xshatishlar -gul yoshlik, etagin o'par shamol, subhi sodiq, tog'dek ulkan anduh, chaqmoq urgan daraxtday, umri tutdek to'kilmox, daraxtddek gullamoq. Masalan,

Tog'dek ulkan anduhning

Yukladingmi ayolga?

Kaftlarini shu chayir

Qop-qora chanoq tilgan.

Qush nomlari bilan bog'liq (ornitonimik kodli) o'xshatishlar shoira ijodida keng qo'llanadi. Jumladan, kapalakday bolalik, qumridek yig'lamoq, kaptardek kukulamoq,

Shoiraning "Ona haqida qo'shiq" dostonida ayni shunday o'xshatishlar bir qancha qo'llangan.

Kapalakday shod, quvnoq

Bolaligim qani-yo?

Berkitdi bekinmachoq

O'ynagan g'irrom dunyo.

Yoki

Ildizlari sayrona

Daraxtddek gullayapman.

Lekin nechun dil yona,

Qumridek yig'layapman.



Bunday o‘xshatishlarning mavjudligi shoira she’riyatining Furqat she’riyatiga yaqin ekanligini ko‘rsatadi..Masalan,

Qush kaptardek kukulab,

Ko‘zi eshikda o‘tgan,

Enajonim kelar deb

Dard-u sog‘inchda o‘tgan.

Enaxon Siddiqova she’rlari poetikasining mazmuniy boyligi, obrazliligi metaforalarning qo‘llanilishida ko‘rinadi. Shoir metaforaga asoslangan ma’no ko‘chishida an’anaviy leksik vositalar bilan birga xususiy metaforik ifodalarni ham yaratadiki, bu bilan g‘azallarining badiiy qimmatini oshirishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A “O’zbek tilining nazariy grammatikasi” Toshkent “O’qituvchi” 1995.
2. G’ani Abduraxmonov. “O’zbek tili grammatikasi” Toshkent “O’qituvchi” 1996.
3. Йўлдошев М. Бадиий матнинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2008. – Б.87.
4. Розикова Г. “Девону луготит турк” асаридағи от лексемаларнинг семантиқ, функционал ва услубий хусусиятлар Филол.фунд-ри (DsC). ...дисс.автореф. – Фарғона, 2021.
5. Жўраева Р. Муқимий асарларининг лексик-семантиқ хусусиятлари: Филол.фунд.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Кўқон, 2022.
6. Маруфова З. Мумтоз бадиий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол.фунд.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022.
7. Sh. Rahmatullayev. “Hozirgi o’zbek adabiy tili” 2006.